



O'ZBEKISTONDA AHOLI SONI DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TAHLILI

PhD Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-1936-7885

k.gulmurodov@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda aholi sonining o'sish dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Ishda demografik jarayonlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilib, tug'ilish, o'lim, migratsiya, urbanizatsiya va mehnat resurslari harakati kabi omillar aholi soniga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlar sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda so'nggi yillarda mamlakatda kuzatilayotgan demografik o'sish sur'atlari, ularning hududlar kesimidagi farqlari va aholi tarkibidagi o'zgarishlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning uzoq muddatli demografik siyosatini shakllantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: aholi soni, demografik o'sish, tug'ilish, o'lim, migratsiya, urbanizatsiya, mehnat resurslari, ijtimoiy omillar, demografik siyosat.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ДИНАМИКУ ЧИСЛЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

PhD Гулмуродов Камолиддин Абдукодир угли

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируются основные факторы, влияющие на динамику роста населения Узбекистана. В работе изучена взаимосвязь демографических процессов с экономическим и социальным развитием, а такие факторы, как рождаемость, смертность, миграция, урбанизация и движение трудовых ресурсов, рассматриваются как важные показатели, влияющие на численность населения. В исследовании на основе статистических данных проанализированы темпы демографического роста, наблюдаемые в стране в последние годы, их различия в разрезе регионов и изменения в структуре населения. Результаты исследования могут служить научной основой для формирования долгосрочной демографической политики Узбекистана.

Ключевые слова: численность населения, демографический рост, рождаемость, смертность, миграция, урбанизация, трудовые ресурсы, социальные факторы, демографическая политика.

ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING POPULATION DYNAMICS IN UZBEKISTAN

PhD *Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli*
Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the main factors influencing the dynamics of population growth in Uzbekistan. The study examines the interrelationship of demographic processes with economic and social development and considers such factors as birth rate, mortality, migration, urbanization, and the movement of labor resources as important indicators influencing the population. The study analyzed, based on statistical data, the demographic growth rates observed in the country in recent years, their differences by region, and changes in the structure of the population. The research results can serve as a scientific basis for the formation of Uzbekistan's long-term demographic policy.*

Keywords: *population, demographic growth, birth rate, mortality, migration, urbanization, labor resources, social factors, demographic policy.*

Kirish.

Demografik ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligi har doim muhim masala bo'lib kelgan. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan statistik islohotlar ma'lumotlar sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Zamonaviy ma'lumot to'plash metodlari, jumladan, raqamli texnologiyalar va GIS tizimlarining joriy etilishi demografik jarayonlarni yanada aniqroq o'lchash imkonini yaratdi. Hududiy va mahalliy darajada ma'lumotlar to'plash tizimining takomillashuvi mikro-demografik tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Aholi sonining dinamikasi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida markaziy o'rin tutadi. Chunki demografik o'sish, mehnat resurslari hajmi, bandlik darajasi va iste'mol bozorining shakllanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. O'zbekistonda aholi sonining izchil ortib borayotgani bir tomondan, iqtisodiy o'sish uchun mehnat salohiyatining kengayishini anglatadi, boshqa tomondan esa, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy infratuzilma va bandlik siyosatini takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi. Shu bois, aholi soni dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tabiiy o'sish sur'atlari yuqoriligi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, migratsion oqimlarning faollashuvi va yosh aholining ulushi ortib borayotgani demografik bosimni kuchaytirayotgan omillardan sanaladi. Bu esa ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va mehnat bozoriga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Xususan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekiston aholisi 40 milliondan oshishi kutilmoqda. Shu sharoitda demografik siyosatni strategik boshqarish va aholi o'sishini barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi, shuningdek, demografik o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga, ijtimoiy tenglikka va inson kapitaliga ta'sirini aniqlash zaruratida namoyon bo'ladi. Aholi sonining o'sishi faqat kvantitativ ko'rsatkich emas, balki iqtisodiyotning sifat jihatdan rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omildir. Shu bois, aholining ta'lim darajasi, sog'lom turmush tarzi, mehnatga layoqatlilik darajasi va migratsion faoliyati kabi omillarni tahlil qilish O'zbekistonning demografik salohiyatidan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, global demografik tendensiyalar ham O'zbekiston uchun muhim saboqlar beradi. Masalan, rivojlangan davlatlarda qarish jarayoni tezlashayotgan bir paytda, O'zbekistonda demografik "yoshlik oynasi" mavjud bo'lib, bu iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi. Shu demografik afzallikdan samarali foydalanish uchun bandlik siyosatini diversifikatsiyalash, yangi ish o'rinlari yaratish va ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi sonining dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ingliz tilidagi manbalarda demografik o'sishning iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil etilgan.

Nielsen (2016) o'zining "The Demographic Transition Theory and Its Link to the Historical" nomli maqolasida demografik o'tish nazariyasining tarixiy asoslarini yoritib, tug'ilish va o'lim darajalari o'zgarishining iqtisodiy o'sish bosqichlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Muallifga ko'ra, har bir mamlakatda demografik o'tish jarayoni sanoatlashtirish darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Galor (2012) esa o'zining "The Demographic Transition: Causes and Consequences" nomli maqolasida demografik o'tishning asosiy sabablarini aniqlaydi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qiladi. U aholining o'sish sur'atlari, mehnat unumdorligi va kapital jamg'arilishi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik misollar asosida isbotlaydi. Muallifning fikricha, demografik o'tish jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy modernizatsiyaning muhim bosqichi hisoblanadi.

Bloom va Canning (2013) o'z tadqiqotida "Demographic Change and Economic Growth in Developing Countries" mavzusida aholining yosh tarkibi va mehnatga layoqatli qatlamning o'sishi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan. Ular "demografik dividend" tushunchasini asoslab, mehnat resurslari ko'paygan paytda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi.

Popov (2015) o'zining "Демографическая теория Т. Мальтуса и экономическая история Российской империи" nomli ishida Malthus nazariyasini tarixiy jihatdan tahlil qiladi. U demografik jarayonlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini Rossiya imperiyasi misolida ko'rsatadi.

Pintayeva (2019) esa "Теория демографического перехода как основа современных демографических исследований" nomli maqolasida demografik o'tish konsepsiyasining zamonaviy talqinini yoritadi. Muallif bu nazariyaning statistik qo'llanilishini va aholining tabiiy o'sishini bashorat qilishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, Kadirov (2024) tomonidan tayyorlangan "Демографическая динамика и региональные типы расселения в Самаркандской области" nomli maqolada O'zbekistonning hududiy demografik jarayonlari, aholi joylashuvi va urbanizatsiya tendensiyalari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot mamlakatning ichki demografik muvozanatini baholashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muxtarov va Murotjonova (2024) o'zlarining "Analysis of Dynamic Population Growth in the Republic of Uzbekistan" nomli maqolasida aholi soni o'sishining statistik ko'rsatkichlarini tahlil qilib, demografik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.


Mazkur tadqiqotning metodologiyasi O'zbekistonda aholi soni dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy, statistik va empirik usullar uyg'un qo'llanilgan bo'lib, asosiy e'tibor aholi o'sishining iqtisodiy, ijtimoiy va demografik omillar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga qaratiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholi demografiyasi XXI asrning eng muhim global masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo aholisining o'sishi, tarqalishi va migratsiyasi murakkab jarayonlar bo'lib, ularning oqibatlari barcha davlatlar va jamiyatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Tahlil asosida aholi dinamikasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganish, zamonaviy tendensiyalar va kelajak prognozlarini ishlab chiqish aholi sonini baholashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilgi “Dunyo aholi prognozlarini” hisobotiga ko‘ra, global aholi soni 2024-yilda 8,2 milliard kishini tashkil etadi. BMT ekspertlarining taxminlariga ko‘ra, aholi soni 2080-yillarda 10,3 milliard kishida eng yuqori darajaga yetgach, so‘ngra pasayish boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimiz aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga 37,5 million kishini tashkil etadi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 2% o‘shishni ko‘rsatadi.



1-rasm. O‘zbekistonning doimiy aholi soni

Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2441/line-data>

Iqtisodiy omillar aholi dinamikasining eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Iqtisodiy rivojlanish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi o‘shishi, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlariga ta‘sir qiladi.

Aholining tabiiy harakati insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim demografik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, har bir mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga bevosita ta‘sir etadi. Ushbu jarayonni tashkil etuvchi asosiy elementlar tug‘ilish, o‘lim va ularning farqi sifatida namoyon bo‘luvchi tabiiy o‘shish darajasi hisoblanadi. Demografik o‘zgarishlar aholining soni, tarkibi va geografik tarqalishini shakllantiribgina qolmay, balki milliy taraqqiyot darajasi, mehnat bozori, ta‘lim, sog‘liqni saqlash tizimi va ekologik barqarorlikni ham belgilaydi.

XXI asrga kelib, tug‘ilish va o‘lim darajalarining o‘zgarishi dunyo davlatlarida juda murakkab va keskin manzarani yuzaga keltirmoqda. Masalan, yuqori daromadli davlatlarda tug‘ilish darajasining pasayishi, aholining qarishi va demografik inertsiya xavfi yuzaga kelayotgan bo‘lsa, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori tug‘ilish sur‘atlari ijtimoiy infratuzilmaga bosimni kuchaytirmoqda.

Iqtisodiy omillar aholi dinamikasining ta‘sir etish doirasi kengdir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, daromad va umumiy tug‘ilish ko‘rsatkichi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud ta‘lim darajasi va aholi jon boshiga YaIM yuqori bo‘lgan davlatlar, subpopulatsiya yoki bolalar tug‘ilishini kamligini kuzatish mumkin. Iqtisodiy rivojlanish tug‘ilishga teskari proporsionaldir. Shu bilan birga, aholi soniga tug‘ilish, o‘limning ta‘sirini iqtisodiy jihatdan quyidagi bosqichlar asosida o‘rganish mumkin.

O‘zbekistonda natural harakatlanish jarayonlari murakkab dinamikaga ega bo‘lib, turli demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta‘sirida shakllanadi. Tug‘ilish jarayonlari nafaqat biologik, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga ham bog‘liq. So‘nggi-yillarda oila rejalashtirish madaniyatining rivojlanishi, ayollarning ta‘lim va mehnat faoliyatida faolroq

ishtirok etishi tug'ilish sur'atlarini ma'lum darajada tartibga soldi. Fertilitit darajasi hududiy jihatdan sezilarli farqlanadi. Qishloq joylarida shaharlarga nisbatan yuqori bo'lib, bu an'anaviy oila tuzumi va bolalarning iqtisodiy qiymatining yuqoriligi bilan bog'liq. Farg'ona vodiysidagi viloyatlarda fertilitit darajasi yuqori bo'lib, markaziy va g'arbiy hududlarda nisbatan pastroq. Bu farqlar ta'lim darajasi, urbanizatsiya darajasi va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarga bog'liq fertilitit ko'rsatkichlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. 20-29 yosh oralig'idagi ayollarda fertilitit eng yuqori darajada bo'lib, bu yoshda oila qurishning optimal vaqti hisoblanadi. 15-19 yosh oralig'ida erta nikohlar va tug'ruv ko'rsatkichlari pasayib bormoqda, bu ijobiy tendentsiya hisoblanadi va ayollarning ta'lim olishi hamda kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

O'lim ko'rsatkichlari ham murakkab dinamikaga ega. 2024-yilda jami 174,400 kishi vafot etdi, bu 2023-yilga nisbatan 0.9% ko'p. Ulardan 96,000 nafari (55.04%) erkaklar, 78,400 nafari (44.96%) ayollar. Bu nisbat erkaklar orasidagi o'lim darajasining yuqoriligini ko'rsatadi, bu asosan turmush tarzi, kasbiy xavf-xatarlar va sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik bilan bog'liq.

O'lim sabablari orasida yurak-qon tomir kasalliklari 57.6%, saraton kasalliklari 9.4%, nafas olish organlari kasalliklari kabi zamonaviy kasalliklar etakchilik qilmoqda. Bu tarkib rivojlangan mamlakatlarning o'lim sabablari tuzilishiga yaqinlashib bormoqda va demografik o'tishning ilg'or bosqichiga o'tish jarayonini ko'rsatadi.

Umr ko'rish davomiyligi 75.4-yilni tashkil etib, erkaklar uchun 72.4-yil, ayollar uchun 78.5-yilni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar so'nggi o'n-yillikda barqaror o'sish tendentsiyasida bo'lib, tibbiyot sohasidagi yutuqlar, turmush sifatining yaxshilanishi va profilaktik choralarning kuchaytirilishining natijasidir.

O'zbekiston ko'p millatli davlat bo'lib, o'zbeklar aholining 84.5%ini tashkil etadi. Boshqa etnik guruhlar orasida tojiklar 4.8%, qozog'lar 2.4%, qoraqalpoqlar 2.2%, ruslar 2.1% va tatarlar 0.5%ni tashkil etadi. Bu etnik xilma-xillik mamlakatning madaniy boyligini oshiradi, ammo shu bilan birga demografik jarayonlarda ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Etnik guruhlarining demografik harakatlanishi har xil bo'lib, o'zbeklar orasida tug'ilish darajasi yuqori va barqaror holatda, tojiklar orasida ham yuqori, ammo qishloq joylarida ko'proq. Slavyan etnik guruhlar (ruslar, ukrainlar) orasida tug'ilish darajasi past va keksayish jarayoni tezroq bormoqda. Koreyaliklar va boshqa kichik etnik guruhlar orasida ta'lim darajasining yuqoriligi tufayli tug'ilish darajasi nisbatan past.

O'zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari demografik tarkibga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yil 193,5 ming kishi chetga ko'chib ketgan, bu o'tgan-yilga nisbatan 7,5% ko'p. Migratsiya jarayonlari asosan mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar tomonidan amalga oshirilmogda, bu oila tuzish va tug'ilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Migratsiya yo'nalishlarida Rossiya birinchi o'rinni egallaydi - 127,8 ming kishi (66,0%). Qozog'istonga 28,5 ming kishi (14,7%), Turkmanistonga 15,6 ming kishi (8,1%), Qirg'izistonga 12,4 ming kishi (6,4%) ko'chib ketgan. Boshqa davlatlarga 9,2 ming kishi (4,8%) ko'chib ketgan (Report, 2024).

Mehnat migratsiyasining yana bir muhim jihati shundaki, xalqaro migrantlarning sifati tarkibiy jihatdan o'zgarib bormoqda, jumladan, ularning ta'lim darajasi oshib, yuqori malakali mutaxassislarining davlatlararo mehnat migratsiyasi oqimlaridagi ishtiroki faollashmoqda. Bunday tendensiya rivojlangan davlatlar uchun ijobiy samara berib, ularning mehnat bozorini yuqori malakali kadrlar bilan boyitsa, emigratsiya markazlari bo'lgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun esa aksincha, kadrlar oqimi tufayli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonning 2050-yilgacha bo'lgan prognozini ishlab chiqish tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir. Chunki mamlakat aholisining mehnat migratsiyasi oqimlarining kelgusi-yillardagi istiqbollarini ishlab chiqish, mamlakat miqyosida dasturlarni va strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib hizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasi jarayonlari u yoki bu mintaqa aholi sonini o'zgartiribgina qolmay, uning jinsi, yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi, millati va h.k. bo'yicha tarkibini ham o'zgartiradi. Mehnat migratsiyasi jarayonlarining ushbu jihatlarini o'rganish uchun sanab o'tilgan tavsiflar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar tarkibi ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Migrantlar jalb qilish markazlari sanalgan mintaqalarda aholi umumiy soni ko'payishdan tashqari aholining qarish jarayoni sekinlashadi, chunki migrantlar orasida yoshlar va mehnatga layoqatli shaxslar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aholining chiqib ketuvchi oqimi kuchli bo'lgan mintaqalarda mehnat migratsiyasi teskari samara beradi. Qochqinlar va majburiy ko'chib ketganlar uchun o'ziga xos demografik va ijtimoiy tarkib xosdir (Thomas, 2010).

Mehnat migratsiyasi intensivligi mehnat migratsiyasi koeffitsientlari bilan o'lchanib, ulardan tahlilda foydalanish aholi tabiiy harakati koeffitsientlaridan jiddiy farq qiladi. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik hodisalar bitta belgilangan aholi yig'indisi doirasida ro'y beradi. Mehnat migratsiyasi esa doimo bir vaqtning o'zida ikki xil hududiy aholi jamiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Birinchi bosqich past daromadli davlatlar kategoriyasiga jon boshiga YaIM-yiliga 1000 dollardan past bo'lgan davlatlar kiradi. Bu davlatlarda ayollar kamida uchta farzand ko'rish tendensiyasiga ega. Ushbu davlatlar uchun xos demografik xususiyatlar quyidagicha: yuqori tug'ilish ko'rsatkichi 30-45 promille oralig'ida, nisbatan yuqori o'lim ko'rsatkichi 10-20 promille, aholi o'sishi-yiliga 2,5-4,0 foiz, yosh aholi ulushi yuqori bo'lib 0-14 yosh guruhi umumiy aholining 40-50 foizini tashkil etadi. Iqtisodiy jihatdan bu davlatlar qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyotga ega, cheklangan ta'lim imkoniyatlari va yetarlicha rivojlanmagan sog'liqni saqlash tizimiga egadir.

Ikkinchi bosqich bu o'rta daromadli davlatlar kategoriyasidir va jon boshiga YaIM 1000-10000 dollar oralig'idagi davlatlar kiradi. Ushbu bosqichda demografik o'zgarishlar jadallasha boshlaydi. Pasayib borayotgan tug'ilish ko'rsatkichi 20-30 promille, sezilarli ravishda kamayib borayotgan o'lim ko'rsatkichi 8-12 promille, barqaror aholi o'sishi 1,5-2,5 foiz, ishchi yosh aholi ulushining ortishi hisoblanadi, bunda 15-64 yosh guruhi umumiy aholining 60-65 foizini tashkil etadi. Iqtisodiy jihatdan sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanishi, ta'lim tizimining yaxshilanishi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi kuzatiladi.

1-jadval

2024-yilda mamlakatlarning 1000 kishiga nisbatan tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajasi (kishi)

Davlat	Tug'ilish darajasi (ming kishiga)	O'lim darajasi (ming kishiga)	Tabiiy o'sish (‰)	Fertillik darajasi (ayol boshiga farzand)
O'zbekiston*	22,1	5,4	16,7	2,7
Yaponiya**	7,3	11,1	-3,8	1,3
Nigeriya**	37,3	12,4	24,9	5,3
Fransiya**	11,2	9,4	1,8	1,9
Hindiston**	17,4	7,3	10,1	2,1

Manba: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

**United Nation World Population Prospects 2024, <https://population.un.org/wpp/>

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yuqori tug'ilish sur'atlarini saqlab qolgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlar orasida xususan, Yaponiya, Fransiya tug'ilish pasayib, o'lim darajasi bilan nisbatan muvozanatlanib bormoqda. Yaponiyada esa tabiiy o'sish salbiy ko'rsatkichga ega bo'lib, bu demografik qarish xavfini kuchaytirayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, global sog'liqni saqlash tizimlarining takomillashuvi natijasida o'lim darajasi pasaygan bo'lsa-da, ba'zi mintaqalarda urushlar, oziq-ovqat tanqisligi, iqlim inqirozi va epidemiyalar kabi omillar uni yana yuqori darajaga qaytarmoqda.

Eng past tug'ilish darajalari yuqori daromadli mamlakatlarga Fransiya, Yaponiya to'g'ri kelmoqda. Bu holat urbanizatsiya, kasbiy bandlik, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi, bolani tarbiyalash xarajatlarining yuqoriligi bilan bog'liq. Aksincha, O'zbekiston kabi daromadi nisbatan past mamlakatlarda tug'ilish darajasi yuqoriligicha qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga mehnat migratsiyasi zamonaviy global iqtisodiyotning muhim komponenti hisoblanadi. Zamonaviy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi shaxsiy pul o'tkazmalari ortishi bilan birga chet el ishchi kuchi uchun raqobatbardosh talabni tasdiqlaydi.

2-jadval

O'zbekiston mehnat resurslarining bandlik darajasi (%da)

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	67,4	68,1	66	67	67,2	67,9	68,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62,9	62,9	62	61,1	61,6	62,9	63,5
Andijon viloyati	69,6	70,1	66,5	68,2	69,5	70,6	70,7
Buxoro viloyati	70,7	69,3	68,3	67,2	67,2	68,7	68,6
Jizzax viloyati	61,6	67,1	66,2	67,5	66,2	66,3	66,7
Qashqadaryo viloyati	64,8	63,9	60,9	62,2	61,9	61,9	64,9
Navoiy viloyati	69,2	69,5	66,8	68,3	67,7	69,8	70,1
Namangan viloyati	63,8	66,4	65	65,5	64,8	65,9	66,8
Samarqand viloyati	66,3	65,3	63,2	63,7	64,7	65	64,8
Surxondaryo viloyati	65,2	67	63,9	64,5	64,2	63,8	63,4
Sirdaryo viloyati	70,5	68,9	64,8	64,5	64	63,8	65,3
Toshkent viloyati	71,4	71,4	68,2	72,4	71	72,2	72,3
Farg'ona viloyati	66	67,5	65,1	66,2	67,1	68,4	68
Xorazm viloyati	64,6	66,1	63,7	64	64,7	66,9	66,5
Toshkent shahri	77,5	80,1	81,7	81,3	82,5	82,3	81,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumoti.

Yuborovchi davlatlar uchun mehnat migratsiyasi quyidagi ta'sirlarni keltirib chiqaradi: pul o'tkazmalari orqali valyuta tushumlari, ishsizlik darajasining pasayishi, malakali ishchi kuchi yo'qolishi muammosi, aholi bosimining kamayishi, xorijiy tajriba va bilimlarning transferi.

Qabul qiluvchi davlatlar uchun mehnat migratsiyasi quyidagi natijalarni beradi: mehnat bozorida tanqislikni qoplash, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish, demografik tuzilmaning yaxshilanishi, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmaga bosim ortishi, madaniy xilma-xillikning ortishi kuzatiladi.

2024-yilda bandlik darajasi 68,3 foizni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-2022-yillarga nisbatan o'sishni kuzatish mumkin. Bandlik darajasi va mehnat bozori aholi sonining ortish yoki kamligiga qarab o'zgaradi va natijada migratsiyaga aholining mamlakatdan ko'chib chiqishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 25-55 yosh oraliqidagilar 2024-yilda barcha migrant ishchilarning 75,9 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich mehnat migratsiyasining asosiy demografik profilini aks ettiradi.

Yuqori bandlik darajasi 80 foizdan yuqori bo'lgan hududlarda shahar aholisining ortishi va zich joylashish kuzatiladi. Yosh mutaxassislarining ichki migratsiyasi kuchayadi, oila o'lchamining kichiklashishi 1-2 farzand darajasida bo'ladi. Kech turmush qurish tendensiyasi

25-30 yosh oralig'ida kuzatiladi. Ayollarning mehnat faoliyatida ishtirok etishi ortadi, yuqori hayot sifati va daromad ta'minlanadi, xizmatlar sektorining rivojlanishi kuzatiladi¹⁵.

O'rta bandlik darajasi 50-80 foiz oralig'ida bo'lgan hududlarda aralash shahar-qishloq aholi tarqalishi kuzatiladi. Mavsumiy va vaqtincha mehnat migratsiyasi rivojlanadi, o'rtacha oila o'lchamlari 2-3 farzand darajasida bo'ladi. Turmush qurish yoshi 20-25 yosh oralig'ida, sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlarining dominantligi kuzatiladi.

2018-yilda butun respublika bo'yicha ishsizlar soni 1 368,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 836,4 ming kishigacha kamaygan. Bu 6-yilda ishsizlik sonining 38,9 foiz ga qisqarganini anglatadi. Bunday pasayish mehnat bozori faolligi, bandlik agentliklari faoliyati, migratsiya oqimlari va kasbiy qayta tayyorlov siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

3-jadval

O'zbekiston ishsizlar soni dinamikasi

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	1368,6	1335,3	1561	1441,8	1332,7	1024,1	836,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	74,3	70,9	82,6	78,9	71,9	56,3	45,8
Andijon viloyati	134,8	129,4	150,6	138,8	130,5	100,7	77,2
Buxoro viloyati	77,6	78,3	93,9	84,9	75,8	55,6	45,7
Jizzax viloyati	52,8	54,1	65,8	61,9	56,3	43,5	34,9
Qashqadaryo viloyati	131,3	125,3	146,9	137	124,2	96,5	80,9
Navoiy viloyati	38,6	38,2	41,5	39,8	35,7	28,6	22,5
Namangan viloyati	111,1	110,1	128,5	119,3	107,9	84,9	68,6
Samarqand viloyati	157,3	148,4	174,6	158,4	152,5	106,8	86,3
Surxondaryo viloyati	105,3	104,6	122,8	113,9	103,6	80,6	64,4
Sirdaryo viloyati	36,5	35,8	41,2	38	34,5	26,8	21,9
Toshkent viloyati	122,1	120,6	138,6	126,5	116,9	90,5	76,2
Farg'ona viloyati	155,6	152,2	177,1	165,5	153,9	118,8	100,5
Xorazm viloyati	74,2	73,5	88,1	80	73,7	54,9	44,8
Toshkent shahri	97,1	93,9	108,8	98,9	95,3	79,6	66,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumoti

Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida ishsizlar soni nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlarda aholining zichligi, yoshlik indeksi va norasmiy mehnat ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. Aksincha, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida ishsizlik past bo'lib, bu sanoat zonasiga yaqinlik, ruda sanoati, davlat subsidiyalari va aholisi kamligi hisobiga bandlikning yuqoriligini bildiradi.

Ishsizlik va kam bandlik 50 foizdan past bo'lgan hududlarda qishloqdan shaharga keng ko'lamlı migratsiya kuzatiladi. Xalqaro mehnat migratsiyasining kuchayishi, katta oila o'lchamlari 3-5 farzand darajasida, ijtimoiy barqarorlikning buzilishi va norasmiy iqtisodiyot sektorining kengayishi sodir bo'ladi.

Yuqori daromad kategoriyasiga-yiliga 10000 dollardan yuqori daromadga ega bo'lgan oilalar kiradi. Ularda kam farzandli oilalar 1-2 farzand darajasida kuzatiladi, yuqori ta'lim darajasi 70-90 foiz oliy ta'lim bilan ta'minlanadi. Kech nikoh va farzand ko'rish 28-32 yosh oralig'ida sodir bo'ladi. Shahar muhitida yashash kuzatiladi, oila rejalashtirish vositalaridan foydalanish keng tarqalgan, yuqori tibbiy xizmatlar sifati ta'minlanadi, investitsiyalar va pensiya rejalashtirish amalga oshiriladi.

¹⁵ <https://datacatalog.worldbank.org/search/dataset/0037712/World-Development-Indicators>

4-jadval

O'zbekiston hududlari kesimida ishsizlik darajasi (2024-yil)

Hudud	Ishsizlar soni (ming kishi)	Respublika ulushi (%)
Farg'ona viloyati	100,5	12,0%
Samarqand viloyati	86,3	10,3%
Qashqadaryo viloyati	80,9	9,7%
Toshkent viloyati	76,2	9,1%
Andijon viloyati	77,2	9,2%
Toshkent shahri	66,7	8,0%
Surxondaryo viloyati	64,4	7,7%
Namangan viloyati	68,6	8,2%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	45,8	5,4%
Buxoro viloyati	45,7	5,4%
Xorazm viloyati	44,8	5,4%
Jizzax viloyati	34,9	4,2%
Navoiy viloyati	22,5	2,7%
Sirdaryo viloyati	21,9	2,6%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

O'rta daromad kategoriyasiga-yiliga 1000-10000 dollar oralig'idagi daromadga ega bo'lgan oilalar kiradi. Ularda o'rtacha oila o'lchamlari 2-3 farzand darajasida, o'rta ta'lim darajasi 50-70 foiz o'rta maxsus ta'lim bilan kuzatiladi. Nikoh yoshi 23-28 yosh oralig'ida, shahar va qishloq aralash tarqalishi, cheklangan oila rejalashtirish va asosiy tibbiy xizmatlar mavjud bo'lgan kategoriyadagilar kiradi.

Past daromad kategoriyasiga-yiliga 1000 dollardan past daromadga ega bo'lgan oilalar kiradi. Ularda ko'p farzandli oilalar 3-6 farzand darajasida kuzatiladi, past ta'lim darajasi 30-60 foiz boshlang'ich ta'lim bilan cheklangan. Erta nikoh va farzand ko'rish 18-23 yosh oralig'ida sodir bo'ladi, qishloq muhitida yashash ustunlik qiladi, cheklangan oila rejalashtirish imkoniyatlari va asosiy tibbiy xizmatlar yetishmasligi kuzatiladi. Shuning uchun ham aholi soniga ta'sir etish usullaridan biri sifatida bu ta'limni ko'rsatish mumkin (Schultz, 2007).

Shu bilan birga mamlakatdagi investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishi aholi taqsimotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Transport infratuzilmasi yo'llar va avtomobil yo'llarini o'z ichiga oladi, ular hududlar orasida aholi harakatchanligini ta'minlaydi. Temir yo'llar yirik shaharlar va sanoat markazlari atrofida aholi zich joylashishini rag'batlantiradi. Aeroportlar xalqaro bog'lanishlar va yuqori malakali mutaxassislar migratsiyasini ta'minlaydi. Jamoat transporti shahardagi aholi zichligini oshiradi.

Aloqa infratuzilmasi internet va raqamli xizmatlarni o'z ichiga oladi, ular masofaviy ish imkoniyatlarini yaratadi va aholi tarqalishini o'zgartiradi. Mobil aloqa qishloq hududlarda ham zamonaviy xizmatlar imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyot yangi ish o'rinlari va kasb-hunar imkoniyatlarini yaratadi.

Sanoat infratuzilmasi zavod va fabrikalarni o'z ichiga oladi, ular ishchi sinf aholisining ko'payishiga olib keladi. Texnopark va biznes markazlar yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiladi. Logistika markazlari transport va xizmatlar sohasida ish o'rinlarini yaratadi. Energetika obyektlari barqaror rivojlanish va aholi o'sishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma bank va moliya xizmatlarni o'z ichiga oladi, ular iqtisodiy faollik markazi vazifasini bajaradi. Ta'lim muassasalari yosh oilalar va mutaxassislar uchun jalb qiluvchi omil hisoblanadi. Tibbiyot muassasalari aholi salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Madaniy va sport obyektlari hayot sifatini yaxshilaydi.

Iqtisodiyotning raqamlashuvi ham demografik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi ayniqsa yoshlar reproduktiv yoshdagilarda nikoh va tug'ilish jarayonida o'z aksini topadi.

Raqamli iqtisodiyot ma'lumot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida qurilgan iqtisodiy tizim tushuniladi. Bu tizimda asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ma'lumotlar, bilimlar va raqamli texnologiyalar xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida an'anaviy biznes modellari tubdan o'zgarimoqda va yangi iqtisodiy imkoniyatlar vujudga kelmoqda.

Demografik o'zgarishlar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Yoshlar orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining yuqori bo'lishi, keksa avlodning raqamli savodxonlik darajasining past bo'lishi va aholi migratsiyasining yangi shakllari kuzatilyapti. Bu o'zgarishlar mehnat bozorida, ta'lim tizimida va ijtimoiy munosabatlarda chuqur ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Ma'lumotlar tahlilchisi, kiberbezopaslik mutaxassisi, raqamli marketing bo'yicha mutaxassis kabi yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy kasblarning ko'pchiligi avtomatlashtirish jarayonida yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda.

Demografik jihatdan qaralganda, raqamli texnologiyalar turli yosh guruhlariga har xil ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar orasida raqamli kompetensiyalar tez rivojlanishi va ular yangi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishiga imkon yaratmoqda. Katta yoshdagi ishchilar esa raqamli o'zgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarni boshdan kechirishmoqda.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi shahar va qishloq joylari orasidagi farqlarni yanada kuchaytirmoqda. Shahar aholisi raqamli xizmatlardan kengroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, qishloq joylari raqamli bo'linish muammosiga duch kelmoqda. Bu holat aholi migratsiyasining yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda.

Ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Raqamli ta'lim platformalari, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim shakllari keng tarqalmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat ta'lim sifatini oshirmoqda, balki geografik chegaralarni ham bartaraf etmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi gender tengsizligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayollar IT sohasida kam ishtirok etishi, raqamli kasblardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi kabi muammolar mavjud. Biroq, masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishi ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi demografik ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Telemeditsina, raqamli diagnostika va shaxsiy sog'liqni kuzatish tizimlari hayot davomiyligini oshirish va kasalliklarni erta aniqlashga yordam bermoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Bloom, D.E. & Canning, D. (2013) *Demographic Change and Economic Growth in Developing Countries*. *World Development Journal*, 41(2), 77–89.

Gulmurodov K.A., Akbarova M.I. *O'zbekistonda aholi demografiyasiga ta'a'sir qiluvchi omillar* monografiya, T.: -2025-yil. -132 b.

Galor, O. (2012) *The Demographic Transition: Causes and Consequences*. *Proceedings of the National Academy of Sciences, PMC*. Available at: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4116081>

Muxtarov, B. & Murotjonova, M. (2024) *Analysis of Dynamic Population Growth in the Republic of Uzbekistan*. *Best Journal Up*. Available at: <https://bestjournalup.com/index.php/jcws/article/view/muxt>

Nielsen, R.W. (2016) *The Demographic Transition Theory and Its Link to the Historical*. *Journal of Economic Perspectives*. Available at: <https://journals.econsciences.com/index.php/JEPE/article/view/618>

Report (2024). *The Migration Situation Report for Uzbekistan (April-June 2024)*
<https://ru.scribd.com/document/819906033/Uzbekistan-Migration-Situation-Report-April-June-2024>

Schultz, T. Paul (2007) tadqiqoti "Population Policies, Fertility, Women's Human Capital, and Child Quality"

Thomas Salzmann, Barry Edmonston, James Raymer (2010). *Demographic Aspects of Migration*. - Springer Science & Business Media, 350 p.

Кадиров, М. (2024) Демографическая динамика и региональные типы расселения в Самаркандской области. Самарканд: СГИ. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/population-dynamics-and-regional-types>

Пинтаева, М.Ю. (2019) Теория демографического перехода как основа современных демографических исследований. *Демография и Социология*, 3(12), 45–52. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-demograficheskogo-perehoda>

Попов, Г.Г. (2015) Демографическая теория Т. Мальтуса и экономическая история Российской империи. Москва: Экономика. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/demograficheskaya-teoriya-t-maltusa>